

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY Gvardiyasi Qo‘riqlash
Bo‘linmalari Xodimlarining Jangovar (Jismoniy) Tayyorgarligi
Samaradorligini Oshirishda Sportning O‘rni va O‘ziga Xosligi**

Usmonov Suxrob Mexriddin o‘g‘li

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi Universiteti

Magistraturasi tinglovchisi kapitan.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13974944>

Annotatsiya. O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Qo‘riqlash bo‘linmalari xodimlarining jangovar (jismoniy) tayyorgarligi samaradorligini oshirishda sportning o‘rni va o‘ziga xosligi, yangicha yondashuvlar. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda sportning o‘rni.

Kalit so‘zlar: Milliy gvardiya Qo‘riqlash bo‘linmalari, xodim, harbiy xizmatchi, jangovar tayyorgarlik, sport axloqiy-ruhiy, tayyorgarlik, shakllanish. professional, diqqat, professional fikr.

**THE ROLE AND CHARACTERISTICS OF SPORT IN INCREASING THE
EFFICIENCY OF COMBAT (PHYSICAL) TRAINING OF THE PERSONNEL OF THE
NATIONAL GUARD OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN**

Abstract. The role and uniqueness of sports in increasing the efficiency of combat (physical) training of the personnel of the National Guard of the Republic of Uzbekistan, new approaches. The role of sports in educating young people in the spirit of patriotism.

Key words: Guard units of the National Guard, employee, military serviceman, combat training, sports, moral and spiritual, preparation, formation. professional, attentive, professional thinking.

**РОЛЬ И ОСОБЕННОСТИ СПОРТА В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ
БОЕВОЙ (ФИЗИЧЕСКОЙ) ПОДГОТОВКИ ЛИЧНЫХ СОТРУДНИКОВ
НАЦИОНАЛЬНОЙ ГВАРДИИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**

Аннотация. Роль и уникальность спорта в повышении эффективности боевой (физической) подготовки личного состава Национальной гвардии Республики Узбекистан, новые подходы. Роль спорта в воспитании молодежи в духе патриотизма.

Ключевые слова: гвардейские подразделения Национальной гвардии, служащий, военный служащий, боевая подготовка, спорт, морально-духовная подготовка, формирование. профессиональный, внимательный, профессиональное мышление.

Respublikamizda o'ta muhim toifalangan obyektlar hamda aholining hayot maromini ta'minlovchi obyektlar, shuningdek fuqarolarning obyekt va xonadonlari xavfsizligini ta'minlash, jamoat tartibini saqlash va jinoyatchilikni oldini olish Milliy gvardiya Qo'riqlash bo'linmalari xodimlari faoliyat olib boradi.

O'z xizmat vazifalarini barqaror ravishda yuqori saviyada olib borish uchun Milliy gvardiya Qo'riqlash bo'linmalari xodimi yaxshi jangovar, kasbiy va jismoniy tayyorgarlik ko'nikmalariga ega bo'lishi talab etiladi. Xizmat vazifalarini samarali bajarish har bir xodimdan yuqori kasbiy mahorat talab qiladi. Buning uchun har bir xodimning ish qobiliyati, jismoniy va psixologik tayyorgarligi xizmat vazifalarini bajarishda tayyor turishi, kutilmagan vaziyatlarda o'ziga ishonchi, bilimi va shaxsiy qobiliyatlari yordamida har qanday salbiy holatlarga tayyor bo'lishi lozim.

Milliy gvardiya Qo'riqlash bo'linmalari xodimlari tomonidan ko'rsatilayotgan ishonchni oqlash uchun obyektlar va fuqarolar xonadonlari xavfsizligini ta'minlash, qo'riqdagi obyektlarda jinoyatchilikning oldini olish, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, jamoat tartibini saqlash, shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligini ta'minlash, terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashish, kabi eng muxim vazifalarni bajaradilar. Ularning xizmat vazifalarini yuqori saviyada bajarishda xodimlarning kasbiy-amaliy jismoniy tayyorgarligi yaxshi tashkillashtirilishi lozim. Kasbiy-amaliy jismoniy tayyorgarlik Milliy gvardiya Qo'riqlash bo'linmalari xodimlarining asosiy qismi hisoblanib ularning hayoti va faoliyatida muhim o'rin tutadi. Kasbiy-amaliy jismoniy tayyorgarlik mashg'ulotlari xodimlarining salomatligini yaxshilashga, irodasini mustahkamlab, epcil va chaqqon harakat qilishga, o'zini o'zi boshqara olishga o'rgatadi, hushyorligi idroki, matonati va jipsligini shakllantirib, ularning xizmat intizomiga qat'iy rioya qilishga undaydi. Xizmat o'tash vaqtida har xil noqulay, ekstremal vaziyatlardan to'g'ri qaror qabul qilib chiqib ketish, Milliy gvardiya xodimlaridan mustahkam iroda va katta kuchni talab etadi. Bu esa o'z navbatida Milliy gvardiya xodimlarida kasbiy-amaliy jismoniy tayyorgarlikning yuqori darajada bo'lishi lozimligini taqozo etadi.

Texnika va texnologiya rivojlangan hozirgi kunda Milliy gvardiya xodimlari o'qotar qurollar, shaxsiy ximoya vositalar va maxsus vositalar bilan ta'minlangan bo'lib, xodimlar ularni xizmat vazifalarini bajarishda moxirona qo'llash uchun kasbiy-amaliy jismoniy tayyorgarlik yuqori darajada bo'lishi shart. Bir so'z bilan aytganda kasbiy-amaliy jismoniy tayyorgarlik mashg'ulotlarisiz obyektlar va fuqarolarning mol mulkini daxlsizligini ta'minlashda muvaffaqiyatga erishib bo'lmaydi.

Hozirgi vaqtda Milliy gvardiya Qo'riqlash bo'linmalari xodimlari uchun jangovar, jasbiy va jismoniy tayyorgarlik mashg'ulotlarini olib borish o'quv dasturlari ishlab chiqilgan. Mazkur

dasturda xodimlarning jangovar, jasbiy va jismoniy tayyorgarlik darajalarini oshirish bo'yicha mashg'ulotlarga yetarli darajada e'tibor qaratilmagan. Milliy gvardiya Qo'riqlash bo'linmalari xodimlari o'z xizmat vazifasini bajarish uchun nafaqat jismoniy va psixologik tayyorgarlikka, balki qo'l jangi sambo, dzyudo kabi yakkakurash sport turlari bo'yicha texnik usullari malakasiga ham ega bo'lishi kerak. Umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlikning ushbu uyg'unlikda shakllanganligi xodimga obyektlar va fuqarolarning mol-mulkleri xavfsizligini ta'minlash, qo'riqdagi obyektlarda jinoyatchilarga qarshi kurashish, jamoat tartibini saqlash va fuqarolar xavfsizligini ta'minlashda tartibbuzar (huquqbuzar, jinoyatchi)larni ushlash, og'riq berish usullarini qo'llagan holda kutilmagan bellashuvlarga doimo tayyor turishini ta'minlaydi.

G. Sidorovning fikricha xodimlarning kasbiy mahoratini oshirishda ularning tezkor qaror qabul qilish tafakkuriga o'rgatish, umumiy va maxsus chidamkorlik sifatlarini oshirish, koordinatsion hamda funksional qobiliyatlarini mujassamlikda tarbiyalab borish lozim [1]. N.V. Cheskidov xodimlarning kasbiy sifatlarini rivojlantirishda sport o'yinlari va yakkakurash sport turlarini chambarchas ravishda olib borishni tavsiya qiladi. Uning fikricha xodimning tezkorligi, tezkor fikrlash qobiliyatining o'sishi ma'lumotlarni tez qabul qilish va hayolan qayta ishlab chiqishda yordam beradi [2].

Milliy gvardiya Qo'riqlash bo'linmalari xodimlarining psixologik tayyorgarligini takomillashtirishda quyidagilarni inobatga olgan holda amalga oshirilishi zarur:

1) Xodimlar ishida qo'riqdagi obyektlar fuqarolarning mol-mulkleri xavfsizligini ta'minlashni yuqori saviyada olib borish uchun o'z navbatida Milliy gvardiya Qo'riqlash bo'linmalari xodimlarining kasbiy-amaliy jismoniy tayyorgarligi yuqori darajada bo'lishini ta'minlash uchun nafaqat jismoniy va psixologik tayyorgarlikka, balki qo'l jangi sambo, dzyudo kabi yakkakurash sport turlari bo'yicha texnik usullari malakasi bo'yicha mashg'uloatlar o'tkazilishi lozim.

2) Xodimlarning kasbiy sifatlarini rivojlantirishda sport o'yinlari va yakkakurash sport turlarini chambarchas ravishda olib borishni tavsiya qiladi. Mazkur metod xodimning tezkorligi, tezkor fikrlash qobiliyatining o'sishi ma'lumotlarni tez qabul qilish va hayolan qayta ishlab chiqishda yordam beradi.

3. Zamonaviy simulyatsiya va avtomatlashtirilgan ixtisoslashtirilgan psixologik tayyorlov komplekslarini yaratishni qo'llab-quvvatlash va o'quv markazlari va o'quv maydonchalarida o'zgaruvchan taktik fonga ega bo'lgan qurimlarni qurishni boshlash.

REFERENCES

1. Sh.M.Mirziyoyev. Xavfsizlik kengashining yig'ilishidagi ma'ruzasidan. Toshkent. <https://www.Gazeta.uz./10.01.2018>.
2. R.M.Djuraev. Milliy gvardiyaning jamoat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha vazifalarini zamonaviy talablar asosida amalga oshirish. O'RMG HTI Axborotnomasi. -2020.- № 1,- 3 b.
3. S.D.Mamayusupov. O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasida axloqiy ruhiy ta'minotni tashkillashtirish masalalari. Respublika ilmiy amaliy konferensiya materiallari. Toshkent., 2021, 5 b.
4. Колухов В.Г. Современная концепция боевой подготовки в вузах МВД России // Ученые, научные школы и идеи: Юбил. сб. научных трудов. – М.: МЮ и МВД России, 1995-С.181-187.
5. Михеев П.П. Методика обучения физической подготовки в средних специальных учебных заведениях МВД России: Канд. дис. – Смоленск.1998-160с.
6. Невзоров О.А. Методика физической подготовки сотрудников специальных подразделений. Автореф. канд. дис. – М., 2000. – 21с.
7. Непомнящий СВ. Средства и методы профессионально-прикладной физической подготовки работников отдельных подразделений: Автореф. канд. дис. – М, 1989 – 24с.
8. Подлипняк Ю.Ф., Яншин В.В. Профессионально-прикладная физическая подготовка в вузах МВД России // Ученые, научные школы и идеи: Юбил. сб. научн. тр. – М: МЮ и МВД России, 1995 – С.188-191.
9. Раевский Р.Т., Ямалетдинова Г.А. Профессионально-прикладная физическая подготовка следователей ОВД // ТиПФК. – 1994. – №3-4. – С.25-27.
10. Супрунов Е.П. Специальная физическая подготовка в системе тренировки квалифицированных рукопашных бойцов: Автореф. канддис-М. 1997-27С.162.
11. Сидоров Г. Формирование служебно-прикладной физической подготовленности слушателей (курсантов) вузов МВД России: Автореф. Канддис-Челябинск, 1998-23с.
12. Ческидов Н.В. Средства и методы развития профессиональных качеств сотрудников уголовного розыска в процессе физической подготовки: Автореф. канд. дис. – М., 1997. – 24с.